


## «Davlat tilida ish yuritish» amaliy qoʻllanmasi lotin yozuvida nashr qilindi

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish departamenti hamda OʻzR FA Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari hamkorlikda “Davlat tilida ish yuritish” kitobi lotin yozuvida 15 ming nusxada nashr etildi.



Kuni kecha Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat Oʻzbek tili va adabiyoti universitetida mazkur qoʻllanma taqdimoti oʻtkazildi. Unda Davlat tilini rivojlantirish departamenti, Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti vakillari, kitob mualliflari, tilshunos olimlar, vazirlik va idoralar rahbarlari maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini taʼminlash masalalari boʻyicha maslahatchilari hamda OAV vakillari ishtirok etdi.



Amaliy qo'llanmada tashkilot va muassasalarning ish jarayonida ko'p ishlatiladigan hujjatlar hamda ularni tuzish qoidalari to'liq berilgan. Shu bilan birga, qo'llanmada hujjatlar namunalari bilan ko'rsatilib, u ish yuritishga oid lug'atlar bilan to'ldirilgan.

Qo'llanma vazirlik, idoralar va hokimliklarga bepul taqdim etilmoqda.